

LISONIY HAMJAMIYAT. IJTIMOIIY KOMUNIKATIV TIZIM

Kattaqo'rg'on davlat pedagogika instituti
Filologiya va ijtimoiy fanlar fakulteti
Filologiya va tillarni o'qitish o'zbek tili yo'nalishi talabasi
Ahmadova Laylo

Annotatsiya: Ushbu maqolada lisoniy hamjamiyat va ijtimoiy-kommunikativ tizim tushunchalari sotsiolingvistika nuqtayi nazaridan tahlil qilinadi. Til jamiyat hayotida nafaqat aloqa vositasi, balki ijtimoiy birdamlik va madaniy o'zlikni ifodalovchi muhim omil sifatida talqin etiladi. Lisoniy hamjamiyatlar turli miqyosda – davlat, shahar, muassasa yoki oila doirasida shakllanib, o'ziga xos kommunikativ ehtiyojlarni qondiradi. Maqolada ko'p tillilik, til kodlari va subkodlarning funksional taqsimoti, rasmiy va norasmiy muloqot shakllari misollar orqali yoritiladi. Shuningdek, globallashuv sharoitida kichik lisoniy hamjamiyatlar va tillarni saqlab qolish masalasining dolzarbligi asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: lisoniy hamjamiyat, sotsiolingvistika, ijtimoiy-kommunikativ tizim, ko'p tillilik, til va jamiyat.

Аннотация: В статье рассматриваются понятия лингвистического сообщества и социально-коммуникативной системы в рамках социолингвистики. Язык анализируется не только как средство общения, но и как социальный и культурный феномен, отражающий коллективную идентичность общества. Показано, что лингвистические сообщества могут формироваться на различных уровнях — от государства до семьи — и функционируют в соответствии с конкретными коммуникативными потребностями. Особое внимание уделяется многоязычию, функциональному распределению языков, стилям речи, диалектам и субкодам. На примерах разных стран и социальных групп раскрывается взаимосвязь языка и социальных процессов. В условиях глобализации подчеркивается важность сохранения языков малых сообществ как фактора культурного разнообразия.

Ключевые слова: лингвистическое сообщество, социолингвистика, социально-коммуникативная система, многоязычие, язык и общество.

Abstract: This article examines the concepts of linguistic community and social-communicative system from a sociolinguistic perspective. Language is viewed not only as a means of communication but also as a social and cultural phenomenon that expresses collective identity. Linguistic communities may exist at different levels, including states, cities, institutions, and families, each characterized by specific communicative needs. The paper discusses multilingualism, functional language distribution, speech styles, dialects, and subcodes through practical examples. It highlights how different languages and language varieties coexist and complement one another within a single social space. In the context of globalization, special attention is given to the preservation and development of minority languages and small linguistic communities as essential elements of cultural diversity.

Keywords: linguistic community, sociolinguistics, social-communicative system, multilingualism, language and society.

KIRISH

Har bir lisoniy hamjamiyat o'z ichida muayyan til qoidalariga amal qiladi, o'zaro muloqot madaniyatini rivojlantiradi va avloddan-avlodga axborot uzatadi. Bu hamjamiyatlar tilni faqat muloqot quroli sifatida emas, balki ijtimoiy birdamlik ramzi sifatida ham qadrlaydi. Shuning uchun ham til va lisoniy hamjamiyat o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni o'rganish nafaqat til taraqqiyoti, balki jamiyat rivoji uchun ham muhim ahamiyatga ega. Bugungi globallashuv jarayonida turli lisoniy hamjamiyatlar o'rtasidagi aloqalar kuchayib, ko'p tillilik va madaniyatlararo muloqot muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu esa har bir lisoniy hamjamiyatning o'z tilini saqlab qolish, rivojlantirish va yosh avlodga yetkazishdagi rolini yanada oshiradi. Ayniqsa, kichik millatlar va ularning tillari uchun bu masala dolzarb bo'lib, til orqali o'zligini yo'qotmaslik masalasi muhokama qilinmoqda. Zamonaviy tilshunoslikda lisoniy hamjamiyat tushunchasi til va jamiyat o'rtasidagi murakkab munosabatlarni o'rganishda muhim o'rin tutadi. Lisoniy hamjamiyat ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va madaniy jihatdan o'zaro bog'langan, bir yoki bir necha til yordamida kundalik hayotda bir-birlari hamda turli ijtimoiy institutlar bilan doimiy muloqotga kirishuvchi insonlar majmuyi sifatida talqin etiladi. Ushbu tushuncha tilning faqat aloqa vositasi emas, balki ijtimoiy hodisa ekanini ko'rsatadi. Lisoniy hamjamiyat tushunchasini aniqroq anglash uchun uni real ijtimoiy vaziyatlar orqali ko'rib chiqish muhimdir. Masalan, Buyuk

Britaniya lisoniy hamjamiyatini olaylik. Bu mamlakat yagona siyosiy hudud bo'lishiga qaramay, unda bir nechta tillar faol qo'llaniladi: ingliz, vallyiy, shotland, korn va shotland-gel tillari. Ushbu tillar turli hududlarda va ijtimoiy vaziyatlarda ishlatiladi. Masalan, rasmiy idoralarda asosan ingliz tili yetakchi bo'lsa, Uels hududida vallyiy tili kundalik muloqot va ta'lim sohasida muhim o'rin egallaydi. Bu holat Buyuk Britaniyada yagona siyosiy makon doirasida bir nechta lisoniy hamjamiyatlarning mavjudligini ko'rsatadi. O'zbekiston hududida ham kichik lisoniy hamjamiyatlarga duch kelishimiz mumkin. Masalan, rasmiy til va asosiy til o'zbek tilidir, lekin muloqot vositasi sifatida esa qozoq, qirg'iz, tojik, rus va boshqa tillardan foydalaniladi. Tilning tarqalishi siyosiy chegaralarga bog'liq emasligini Afrikadagi suaxili tili misolida ham ko'rish mumkin. Suaxili tili Tanzaniya, Keniya, Uganda, Mozambik va Zoir hududlarida keng tarqalgan bo'lib, u mazkur davlatlar aholisi o'rtasida umumiy muloqot vositasi vazifasini bajaradi. Bu yerda suaxili tili turli millat va madaniyat vakillarini birlashtiruvchi lisoniy omil sifatida namoyon bo'ladi. Aksincha, Nigeriya misolida bir davlat doirasida 200 dan ortiq tillarning mavjudligi ushbu mamlakatda ko'plab kichik lisoniy hamjamiyatlar faoliyat yuritayotganini ko'rsatadi. Lisoniy hamjamiyat miqyosi faqat davlat darajasi bilan cheklanmaydi. Masalan, yirik shaharni alohida lisoniy hamjamiyat sifatida ko'rish mumkin. Shaharda rasmiy idoralarda davlat tili ustuvor bo'lsa, bozorlarda, mahallalarda yoki norasmiy muloqotda sheva, jargon va aralash nutq shakllari keng qo'llaniladi. Bu holat shaharning o'ziga xos ijtimoiy-kommunikativ tizimga ega ekanini ko'rsatadi.

Kichik lisoniy hamjamiyatlarga misol sifatida korxona yoki ta'lim muassasasini olish mumkin. Masalan, ilmiy-tadqiqot institutida ilmiy uslub asosiy muloqot vositasi hisoblanadi, hujjatlar rasmiy uslubda yuritiladi, norasmiy suhbatlarda esa so'zlashuv uslubi ustun bo'ladi. Ushbu uslublar bir-biridan farq qilsa-da, funksional jihatdan bir-birini to'ldirib, muassasaning umumiy kommunikativ ehtiyojini qondiradi. Bu esa ijtimoiy-kommunikativ tizimning amaliy ko'rinishidir. Ijtimoiy-kommunikativ tizim muayyan lisoniy hamjamiyat doirasida amal qiladigan, funksional jihatdan bir-birini to'ldiruvchi va o'zaro aloqada bo'lgan til kodlari hamda subkodlar majmuini ifodalaydi. Ushbu tizim jamiyat a'zolarining kommunikativ ehtiyojlarini qondirish, ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish va axborot almashinuvini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ijtimoiy-kommunikativ tizimning asosiy xususiyati uning funksional tabaqalanishida namoyon bo'ladi. Ya'ni, tizim tarkibidagi har bir til, uslub, dialekt yoki jargon ma'lum kommunikativ vazifani bajaradi. Masalan, rasmiy-huquqiy munosabatlarda rasmiy uslub yetakchi bo'lsa, ilmiy muhitda ilmiy uslub, kundalik muloqotda esa so'zlashuv uslubi ustuvorlik kasb etadi. Ushbu kodlar bir-birini inkor etmaydi, balki jamiyat hayotining turli sohalarida o'zaro uyg'unlashgan holda faoliyat yuritadi. Oila ham lisoniy hamjamiyatning yorqin misolidir. Masalan, muhojir oilada ota-ona ona tilida muloqot qilsa, farzandlar maktabda davlat tilida ta'lim oladi va do'stlari bilan shu tilda suhbatlashadi. Natijada oilada ikki yoki hatto uch til parallel ravishda qo'llaniladi. Bunda tillarning har biri ma'lum kommunikativ vazifani bajaradi: biri oilaviy munosabatlar uchun, boshqasi ta'lim va ijtimoiy muhit uchun xizmat qiladi. Ko'p tillilik mavjud bo'lgan jamiyatlarda ijtimoiy-kommunikativ tizim turli tillar va ularning subkodlari orqali shakllanadi. Masalan, Rossiyada rasmiy muloqotda rus tili yetakchi bo'lsa, milliy respublikalarda mahalliy tillar kundalik hayot va madaniy sohada faol qo'llaniladi. Shu bilan birga, rus tilining o'zida ham adabiy til, shevalar, yoshlar jargoni va kasbiy terminologiya kabi subkodlar mavjud bo'lib, ular jamiyatning turli kommunikativ ehtiyojlarini qondiradi.

XULOSA

Tilning tarqalish chegaralari har doim ham siyosiy hududlar bilan mos kelmaydi. Ayrim hollarda bir til bir necha davlat hududida umumiy muloqot vositasi vazifasini bajarsa, boshqa holatlarda bitta davlat doirasida ko'plab tillar va lisoniy hamjamiyatlar mavjud bo'lishi mumkin. Bu holat tilning jamiyatdagi funksional va kommunikativ imkoniyatlarining kengligini ko'rsatadi. Shuningdek, lisoniy hamjamiyatlar miqyosi turlicha bo'lib, yirik davlatlardan tortib, oila kabi kichik ijtimoiy guruhlargacha bo'lgan birliklarni qamrab oladi. Har bir lisoniy hamjamiyat doirasida shakllanadigan ijtimoiy-kommunikativ tizim esa til yoki tillarning funksional jihatdan taqsimlanishi va o'zaro to'ldiruvchanligi asosida amal qiladi. Adabiy til uslublari, dialektlar va boshqa subkodlar jamiyatning turli kommunikativ ehtiyojlarini qondirishda muhim rol o'ynaydi.

Umuman olganda, lisoniy hamjamiyat va ijtimoiy-kommunikativ tizim tushunchalarini o'rganish tilni nafaqat lingvistik hodisa, balki murakkab ijtimoiy-

madaniy jarayon sifatida anglash imkonini beradi. Bu esa tilshunoslik tadqiqotlarida jamiyat omilini chuqurroq hisobga olish zaruratini yana bir bor tasdiqlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Berdialiev Abduvali, Turdibekov Mo`min. Sotsiolingvistika. Universitet o'zbek tili va adabiyoti fakulteti bakalavr yo'nalishi uchun darslik. Toshkent, 2022.
2. Elova Dilrabo, Safarova Go'zal Sotsiolingvistika // oquv-uslubiy qollanma // Toshkent 2021, 100 b.
3. Бердиалиев Абдували. Ўз Ўзбек синхрон социалингвистикаси. Тошкентд, 2019.
4. G'aniev G. Sotsiolingvistika asoslari. - Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2005.
5. Safoyeva Sh. M. Lisoniy hamjamiyat tushunchasining nazariy asoslari – inson lisoniy tuzilishining klinik xususiyatlari // *Xalqaro innovatsion tadqiqotlar.* – 2024. – 1-jild, 2-son. – B. 35–40.

GLOBAL SCHOLARS
SCIENTIFIC PUBLISHING